

**OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZALANISHGA VA FUQARO MUHOFAZASI SOHASIDA TAYYORLASHNI TASHKIL ETISH.**

**Xodjakulov Muxtorjon Nazarkulovich**  
**Andijon mashunosozlik instituti “Mehnat muhofazasi”**  
**kafedrası katta o’qituvchisi**

**Annotatsiya:** O’quv jarayoniga o’qitishning loyihaviy usuli joriy qilinadi. Talabalar bilimlarini baholash, kurs loyihalarini tayyorlash, korxonalar buyurtmasi asosida diplom ishlari, fan olimpiadalarini birgalikda o’tkazish, nomdor stipendiyalar belgilash, tegishli malaka sertifikatlari berish jarayoniga korxonalar va tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari jalb etiladi.

**Kalit soʻzlar:** razvedka, muhofaza, model, korxonalar, vaziyat, sertifikat.

**Abstract:** The project method of teaching is introduced into the educational process. The leading specialists of enterprises and organizations are involved in the process of evaluating students' knowledge, preparing course projects, conducting diploma theses based on the order of enterprises, jointly holding science Olympiads, awarding famous scholarships, and issuing relevant qualification certificates.

**Key words:** intelligence, protection, model, enterprise, situation, certificate.

**Аннотация:** В учебный процесс внедряется проектный метод обучения. Ведущие специалисты предприятий и организаций участвуют в процессе оценки знаний студентов, подготовке курсовых проектов, выполнении дипломных работ по заказу предприятий, совместном проведении научных олимпиад, присуждении известных стипендий, выдаче соответствующих квалификационных сертификатов.

**Ключевые слова:** разведка, защита, модель, предприятие, ситуация, сертификат.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentyabrdagi “Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillastirish to‘g‘risida”gi 754-son qarorida o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari barcha talabalarini favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatish, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari va usullariga o‘rgatish aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlashning asosiy vazifalari qatorida belgilab berilgan.

Ana shu vazifalardan kelib chiqib, oliy ta’lim tashkiloti talabalari bilan “Hayot faoliyati xavfsizligi”, “Favqulodda vaziyatlar xavfsizligi” va “Avariya-qutqaruv ishlari” fanlaridan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarni hududiy favqulodda vaziyatlar boshqarmalari, yirik korxonalar va tashkilotlar bilan kelishgan holda tashkil etish talabalarning amaliy ko‘nikmalarini yanada mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Bu maqsadda Andijon viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida va bir necha korxonalarda institutining tayanch kafedralari, o‘quv markazlari tashkil etilishi ham yaxshi samara berdi. Shuningdek, bo‘lg‘usi mutaxassislarni hududiy favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan kelishgan holda, o‘tkaziladigan fuqaro muhofazasi o‘quv mashqlari (jumladan Andijon shahri, Asaka tumani, Marhamat tumanlaridagi qo‘mondonlik-shtab o‘quv mashqlarida talabalarning ishtiroki)ga jalb etish, o‘quv-tanishuv, malakaviy va

bitiruvoldi amaliyotlarini o‘tash, kasb bo‘yicha amaliy bilimlarni shakllantirishning asosiy yo‘llaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, institut talabalaridan iborat “Yosh qutqaruvchi” to‘garagi a‘zolari viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bazasida muntazam tayyorgarlikdan o‘tmoqdalar.

Oliy ta‘lim tashkilotining professor-o‘qituvchilari va ishchi-xodimlari, ish joylarida, har yili fuqaro muhofazasi boshlig‘ining yangi o‘quv yiliga bag‘ishlangan buyruqlari bilan tavsiya etiladigan mavzular bo‘yicha favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorgarlikdan o‘tadilar. Mashg‘ulotlarni o‘tuvchi professor-o‘qituvchilar va o‘qituvchilar ro‘yxati o‘quv yurti rahbarlarining yangi o‘quv yiliga bag‘ishlangan buyruqlari bilan tayinlanadi.

Oliy ta‘limi tashkilotida fuqaro muhofazasi tadbirlarini bajarish uchun o‘qituvchilar, xizmat ko‘rsatuvchi texnik xodimlar va talabalar tarkibidan quyidagi tuzilmalar tashkil etilgan:

- qutqaruv komandalari(guruhlari);
- aloqa guruhlari(zvenolari);
- razvedka guruhlari;
- sanitariya drujinalari yoki postlari(tibbiyot muassasalaridan tashqari);
- jamoat tartibini saqlash komandalari(guruhlari).

Shuningdek, har yili o‘tkazib boriladigan “Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va Fuqaro muhofazasi”) oyliklarida faol ishtirok etish, shu tadbirlar davomida o‘quv yurtlarida “Fuqaro muhofazasi“ kunlarini o‘tkazib borish ham ijobiy natija bermoqda.

Andijon mashinasozlik institutida keying yillarda “5+1” modeli asosida bo‘lg‘usi mutaxassislarni tayyorlashga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. Ushbu o‘qish modeli mutaxassis xodimlarni tayyorlashda dunyoda tan olingan soha mutaxassisligiga o‘qitish (dual tizim)dan bir qancha farq qiladi. Bu usulda o‘qitish o‘quv muassasasida o‘qitishni ishlab chiqarishdagi faoliyati davri bilan birgalikda olib borilishini ko‘zda tutgan mutaxassis xodimlar tayyorlashning shakli sifatida dunyoda tan olingan va asosan o‘rta maxsus ma‘lumotli xodimlarni tayyorlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, taklif etilayotgan o‘qitish (“5+1” modeli) – oliy o‘quv muassasasining va korxonaning o‘zaro hamkorlik tizimidir. Bunda talabalar har haftaning besh kuni mobaynida oliy ta‘lim muassasida, bir kun esa tegishli korxonada faoliyat ko‘rsatadilar, yani korxonada ta‘lim jarayoni davom etadi.

Modelning asosiy tamoyili – bu oliy o‘quv yurtiga va korxonaga sifatli mutaxassislar tayyorlash jarayonida bir xildagi mas‘uliyatni yuklaydi. Bunda korxonaning manfaatdorligi - avvalo mutaxassis xodimlarni izlash va tanlash, tayyorlash, ularni qayta o‘qitish va moslashuvga ko‘zda tutilgan sarflarni kamaytirish imkoniyatidadir. Bunda ish beruvchi mutaxassislarning kasbiy bilimlarini shakllantirishda, bitiruvchilarni korxonaning ish sharoitlariga ko‘nikishi va murabbiylik sistemalarini shakllantirishda faol ishtirok etadi. O‘z navbatida talabalar nafaqat muayyan ishlab chiqarish sharoitlari bilan tanishadilar va kasbiy faoliyat asoslarini o‘zlashtiradilar, balki o‘qishni tamomlaganidan so‘ng mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashish imkoniga ega bo‘ladilar.

Shuni qayd qilish kerakki, ushbu modelning mazmuni o‘quv jarayonini amaliyot bilan to‘ldirishdir, ya‘ni o‘quv jarayoning ma‘lum qismi korxonaga negizida o‘tkaziladi. O‘quv jarayoniga o‘qitishning loyihaviy usuli joriy qilinadi. Talabalar bilimlarini baholash, kurs loyihalarini tayyorlash, korxonalar buyurtmasi asosida diplom ishlari, fan olimpiadalarini

birgalikda o‘tkazish, nomdor stipendiyalar belgilash, tegishli malaka sertifikatlari berish jarayoniga korxonalar va tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari jalb etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib va tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlar va soha mutaxassislarining ilmiy ishlarini tahlil qilish asosida [1-5] quyidagi *xulosaga kelish mumkin* :

Andijon viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi va viloyat korxonalarida institutning tayanch kafedralari, o‘quv markazlari tashkil etilishi, “5+1” modeli asosida mutaxassis xodimlarni tayyorlash va ta’lim jarayoniga hamkor korxonalar va tashkilotlar mutaxassislarini keng jalb qilish ham yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdagi faoliyat samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. ”Аҳолини ва ҳудудларни фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий асослари”(Меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами), I жилд. “Адолат” -2007. 328 б.;

2. ”Аҳолини ва ҳудудларни фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий асослари”(Меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами), II жилд. Тошкент -2017. 368 б.;

3. ”Аҳолини ва ҳудудларни фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий асослари”(Меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами), III жилд. Тошкент -2018. 368 б.;

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-sentyabrdagi “Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillastirish to‘g‘risida”gi 754-son qarori;

5. Ходжакулов М.Н. Модель обучения «5+1» и его применение при подготовке специалистов в высших учебных заведениях.— Universum: Психология и образование. Выпуск: 9(75)- Москва, 2020.-с.7-12.